



SYSTEM OF PUNISHMENT FOR MINORS AND ITS LEGAL BASIS

Kalbaeva Eldora Uzakhbaevna

Student of Karakalpak State University named after Berdakh

E-mail: eldorakalbaeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15437846>

ARTICLE INFO

Received: 09th May 2025

Accepted: 15th May 2025

Online: 16th May 2025

KEYWORDS

Reform, minor, criminal liability, punishment system, defendant's personality.

ABSTRACT

The article analyzes the types of criminal punishments imposed on minors and their specific features. In this regard, national legislation and international legal documents, in particular, the Convention on the Rights of the Child, were studied, and the importance of applying punishments based on the principles of humanity and justice was emphasized.

VOYAGA YETMAGANLARGA TAYINLANADIGAN JAZO TIZIMI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Kalbaeva Eldora Uzaqbaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: eldorakalbaeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15437846>

ARTICLE INFO

Received: 09th May 2025

Accepted: 15th May 2025

Online: 16th May 2025

KEYWORDS

Islahot, voyaga yetmagan, jinoiy javobgarlik, jazo tizimi, ayblanuvchining shaxsi.

ABSTRACT

Maqolada voyaga yetmaganlarga tayinlanadigan jinoiy jazolarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Bu borada milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya o'rganib chiqilgan hamda jazolarning insonparvarlik va adolat tamoyillari asosida qo'llanilishi muhimligi ta'kidlangan.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda voyaga yetmaganlarning tutgan o'rni va ularning huquqiy maqomi dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati va voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Davlatimiz yoshlar bilan bog'liq masalalarni davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bugungi kunda aholining yoshlar qatlamiga oid islohotlarni izchil amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, 2022-yil 28-yanvar kuni qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Prezident farmonining 70-maqsadida ham yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni axloqiy buzilishiga olib keladigan har qanday g'oya va harakatlardan himoya qilish belgilab qo'yilgan [1].



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil aprel holatiga O'zbekiston aholisi soni 36 963 262 kishini tashkil etib, uning 60% dan ortig'ini yoshlar tashkil etadi [2]. Bu ko'rsatkichning katta qismini esa voyaga yetmaganlar - ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar tashkil etadi.

Voyaga yetmaganlar soni ortib borishi bilan ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni ham kundan-kunga ortib bormoqda. Masalan, Ichki ishlar vazirligining 2023 yilgi bergan ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda bir yil ichida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2000 dan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan 8 foizga o'sgan [3]. Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati o'g'rilik, bezorilik va giyohvand moddalar savdosi kabi jinoyatlar bilan bog'liqligi qayd etilgan.

Bu ko'rsatkichlar voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat sodir etishning oldini olish va jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarni jamiyatga qayta aralashuviga ko'maklashishda ularga faqat ta'lim-tarbiya berish bilan cheklanib qolmasdan, ularning huquqiy javobgarligi va jinoiy jazolarning to'g'ri tayinlanishiga ham bog'liq. Chunki voyaga yetmagan shaxsga tayinlanadigan jazo - uni jazolash maqsadida emas, balki tuzatish va jamiyatga qaytishida, yangi jinoyatlar sodir etishining oldini olish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shu bois, amaldagi jinoyat qonunchiligimizga muvofiq, ularga jinoiy jazo tayinlashda, avvalo, ularning yoshi, ruhiy va jismoniy holati inobatga olinadi. Bu masala O'zbekiston ratifikatsiya qilgan bir qator xalqaro hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) "Bola huquqlari to'g'risida Konvensiyasi"da har qanday jazo jarayonida bolaning manfaatlarini ustuvor hisoblanishi belgilangan [4].

Voyaga yetmaganlar javobgarligi bo'yicha huquqshunos olim Q.Tursunovning ta'kidlashicha, "voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llashda jazo emas, balki tarbiya ustuvor bo'lishi kerak. Sababi, bu yoshdagi shaxslar hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ularga to'g'ri ta'sir ko'rsatilsa, jamiyatga foydali inson bo'lib yetishishi mumkin" [5].

Shuningdek, M.Ahmedov o'z tadqiqotlarida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoning ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi, ularning ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, "Voyaga yetmagan jinoyatchilarni jazolash jarayoni ularning ijtimoiy reintegratsiyasini ko'zlash bilan birga, qayta jinoyat sodir etish xavfini kamaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak" [6].

Biz olimlarning fikriga to'liq qo'shilamiz, chunki o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs sodir etgan qilmishining ijtimoiy xavfliligini to'liq anglamasligi, uning ruhiy va jismoniy jihatdan to'liq shakllanmaganligini hisobga olgan holda samarali jinoyat-huquqiy ta'sir choralari qo'llash dolzarb ahamiyatga ega.

Huquqshunos R. To'rayevning fikricha, "voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jazoning maqsadi - uni jazolash emas, balki ijtimoiy moslashtirish va tuzatishdir. Jazolarning asosiy vazifasi jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni jamiyatga foydali shaxs sifatida qayta tarbiyalashdir" [7]. Bu O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat kodeksida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 81-moddasiga muvofiq, jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi jazolar qo'llaniladi:

- jarima;
- majburiy jamoat ishlari;
- axloq tuzatish ishlari;



- ozodlikni cheklash;
- ozodlikdan mahrum qilish [8].

Voyaga yetmaganlarga tayinlanadigan bu jazolar voyaga yetgan shaxslarga tayinlanadigan jazolar maqsadi bilan bir xil bo'lsa-da, ularga tayinlanadigan jazolar o'rtasida farq bor. Masalan, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ayrim jazo turlari qo'llanilmaydi.

Jarima. Sud tomonidan voyaga yetmagan shaxsga tayinlanadigan jarima jazosi jazo turlarining eng yengili hisoblanadi. Bunda shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi va shaxsiy mablag'lariga egaligi hisobga olinadi.

Jarimani to'lash muddatlari, hatto jazo ijro etilmagan hollarda uni boshqa jazo bilan almashtirishda ham insonparvarlik tamoyillari asosida amalga oshirilishini ko'rish mumkin. Chunki voyaga yetmaganlarga jarimani to'lash muddati va miqdori voyaga yetganlarga nisbatan nisbatan kam va jarima jazosi faqat majburiy jamoat ishlari yoki mehnat bilan tuzatish ishlari jazosiga almashtiriladi.

Majburiy jamoat ishlari. Majburiy jamoat ishlari jazosi esa faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Jazoni qo'llashda, birinchidan, u shaxsning sog'lig'iga va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga zarar yetkazmasligi, ikkinchidan, uning o'quv jarayonini buzmasligi kerak.

Axloq tuzatish ishlari. Ushbu jazo turi ham mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanilib, qonunda muayyan yoshga to'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlarga nisbatan majburiy jamoat ishlari va axloq tuzatish ishlarini qo'llash jazo tizimini liberallashtirishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Sababi, shaxsga bu jazolarning biri tayinlanganda, u jamiyatdan ajralib qolmaydi va o'qishidan tashqari vaqtlarda ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish orqali u bir qator foydali ko'nikmalarni o'rganadi.

Ozodlikni cheklash jazosi shaxsni ijobiy tomonga o'zgartirib, uning jinoiy faoliyatiga to'sqinlik qilishda muhim o'rin tutadi. Sud tomonidan shaxsga yashash joyini qandaydir sabablarga ko'ra tashlab ketish va sutkaning muayyan qismida yashash joyidan chiqish taqiqlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish faqat aybdorni yengilroq jazo turlarini qo'llagan holda tuzatishning iloji bo'lmagan taqdirdagina uning shaxsini va sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olgan holda qo'llaniladi. U eng og'ir jazo turi bo'lib, bunda mahkum shaxs jamiyatdan ajratilgan holda tarbiya koloniyalarida jazoni o'taydi.

Olim M.X. Rustamboyev bu haqida "... Qonun chiqaruvchi bunday yondashuv orqali sudlanuvchining jinoiy harakatlariga chek qo'yish, shuningdek, jinoyatning umumiy va maxsus oldini olish holatlarida sudlangan shaxslarni qisqa muddatga jamiyatdan ajratish maqsadga muvofiqligini, uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish samara bermasligini ko'rsatadi," - deb fikr bildiradi [9, 720].

Ularga tayinlanadigan jazolar tizimi o'zida insonparvarlik va adolat tamoyillarini aks ettirgan. Xususan, voyaga yetmaganlar jazo tizimi o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslarga tayinlanadigan jazolardan quyidagi xususiyatlarga ega:

- voyaga yetmaganlarga nisbatan muayyan huquqdan mahrum qilish, xizmat bo'yicha cheklash, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo'llanilmaydi;



- jazolarning miqdori (masalan, jarima) va muddatlari voyaga yetganlarga tayinlanadigan jazolardan bir necha barobar kamroq.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, voyaga yetmaganlar uchun jazolarni tayinlashda, ularning yoshiga mos, rehabilitatsiya qiluvchi va jamiyatga qaytarishga qaratilgan jazolar qo'llanilishi lozim. Shunday qilib, jazolarni belgilashda ularga ko'proq imkoniyat yaratish va ijtimoiy rehabilitatsiyaga yo'naltirilgan usullarni qo'llash muhim.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Aholi soni (2024-yil aprel holatiga)" // <https://stat.uz> (2024-yilgi rasmiy axborot).
3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi rasmiy ma'lumotlari (2023-yil bo'yicha hisobot). // <https://iiv.uz> (Yoshlar jinoyatchiligi bo'yicha statistik sharh).
4. Birlashkan Millatlar Tashkilotining (BMT) "Bola huquqlari to'g'risida" Konvensiyasi <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>
5. Tursunov Q. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat javobgarligi masalalari. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar nashriyoti", 2020.
6. Axmedov M. Jinoyat huquqi va voyaga yetmaganlar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Adolat", 2019.
7. To'rayev R. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashning dolzarb masalalari, "Yuridik dunyo" jurnali, 2021, 2-son.
8. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси <https://www.lex.uz/acts/111453>
9. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм/М.Рустамбаев. - Тошкент: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021 - 784 б.) -Б.720.